

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARGA INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASI.

Abduqaxorova Muslimaxon Mirzabaxrom qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi Tasviriy san'at yo'nalishi
2–bosqich magistranti abduqahhorovamuslim11@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv texnologiyasini qo'llashning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Unda o'quvchilarning yosh, psixologik hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, individual yondashuv asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, badiiy tafakkuri, estetik didi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va usullar tavsiflangan. Maqolada tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni individual yondashuv bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishning amaliy jihatlari ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, individual yondashuv, pedagogik texnologiya, ta'lim jarayoni, ijodiy qobiliyat, badiiy tafakkur, estetik did, mustaqil fikrlash, differensial ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, metodika, o'quvchi faolligi.

O'zbekistonning so'ngi yillarida ta'lim sohasida tub islohotlar sodir bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan so'zlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur so'zlarning negizida, o'qitish metodikasini, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishni bosqichma-bosqich tatbiq etish lozimligiga alohida urg'u berildi.

Hozirgi paytda pedagogik texnologiya qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz darslarni tashkil etishning turli sshakl va metodlarni ishlab chiqish yo'nalishida muayyan tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Bizning ham bu boradagi tadqiqotlarimizda umumiy O'rta ta'lim muassasalarining tasviriy san'at darslarini individual yondashuv texnologiyasi asosida rejalashtirish asos bo'lib xizmat qildi. "Texnologiya" tushunchasi yunoncha "Texnos" (techne) mahorat, san'at hamda (Logoc) - tushuncha, ta'limot so'zlarining birikmasidan tashkil topgan. Alohida qayd etib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy – g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Xususan, pedagog olim V.P. Bepalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv - pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. Biz qator adabiyotlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv tushunchasiga berilgan ta'riflarni tahlil qilib chiqdik, bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda,

“O‘quvchilarga individual yondashuv texnologiyasi — o‘quvchilarning rivojlanish ko‘rsatgichi ularning qobiliyatlariga qarab, o‘quv yo‘llari, usullari, shakllari tanlab olinishiga qaratilgan pedagogik tizim loyihasini amalga oshirish” deb ta’rifladik. V.Eremeeva va T.Xrizmanlar bolaning o‘ziga xos individualligi, o‘quvchilarga ta’lim jarayonida individual yondashuv zarurligini ta’kidlab, o‘qituvchilarga ba’zi tavsiyalarni beradi: Hech qachon bolani biron bir narsaga qodir emasligi yoki unga tushunish qobiliyati yo‘qligi uchun haqoratimiz so‘zlar bilan urishmang. Hozir u sizdan kam narsani biladi, vaqti kelib, hech bo‘lmaganda ba’zi sohalarida u sizdan ko‘ra ko‘proq narsani bilib oladi. Muayyan o‘quvchi yoki ma’lum bir guruh o‘quvchilar uchun o‘quv dastur va o‘qitish metodologiyasini uning qobiliyatlarini maksimal darajada oshirishga, ularning fikrlash turlariga tayanishga yo‘naltirishga harakat qiling. Agar o‘quvchi bilan muloqotda qiynalsangiz, bir-biringizni yaxshi tushunmasangiz, bu uchun uni ayblashga shoshilmang. Ehtimol, siz va o‘quvchi turli xil temperament va xarakterlardan tashkil topgandirsiz, bu sizlarning fikrlashingiz, idrok etishingiz, boshqacha his qilishingizni anglatadi, ya’ni bu nafaqat o‘quvchida, balki sizga ham bog‘liq. O‘quvchini yomon emas, faqat boshqacha, deb tushunish kerak. Siz iloji boricha bag‘rikeng, tushunadigan va tirishqoq bo‘lishingiz, o‘quvchini o‘zgartmasligingiz kerak, o‘zingizda biror narsani o‘zgartirishga harakat qilishingiz kerak. Siz uchun asosiy o‘quvchiga nimadir o‘rgatish uchun emas, balki bolani qiziqi so‘ndirmasdan o‘rganish istagini uyg‘otish, yangi va noma’lum narsalarni o‘rganish uchun lazzatlanish hissi paydo bo‘lishiga ishonch hosil qiling.

O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasligi kerak. Biror narsani o‘rganish uchun, xato qilmaslikni iloji yo‘q. O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqib, vahimaga tushmasligi kerak. Xatolarsiz biror narsani o‘rganish mumkin emas. “Qochgan kishi yiqilib tushadi, yotgan hech qachon yiqilmaydi”. Xatolik qo‘rquvini rivojlantirmaslikka harakat qiling.

O‘quvchini individuallikka bo‘lgan huquqini, o‘zgacha bo‘lish huquqini tan oling. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish uchun ma’lum vaqt va tizimli kuzatuvlarni talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning xususiyatlarini tavsiflaydigan va kuzatish natijalaridan qisqacha xulosalar chiqaradigan kundalikni yuritishi kerak.

Har bir bolaning individual xususiyatlarini o‘rganishda, E.A.Arkinaning fikricha “Samimiy muloqot” bo‘lishi juda muhimdir. “Samimiy muloqot”da o‘quvchi o‘qituvchi unga juda qiziqqan, uning tashvishlariga jonli javob topadigan, odamni ko‘radigan munosabatlar o‘rnatilishini tushunish kerak. Albatta tasviriy san’at darslarida individual yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchining roli kattadir. Chunki individual yondashuv tamoyillaridan asosiysi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy muloqot. Bunday “samimiy muloqot”da o‘qituvchidan yuqori pedagogik va psixologik bilimdonlikni talab etadi. “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunning 5-moddasida: “...yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega”, - deyiladi. O‘qituvchining nafaqat bilimdonligi va kasb mahoratiga egaligi, balki shaxs sifatidagi

ma'naviy qiyofasi ham davlat ahamiyatiga molik muhim masaladir. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlariga o'quvchilar qabul qilishda ularning bilimlarinigina emas, balki ma'naviy - jismoniy xususiyatlarini ham hisobga olish lozim bo'ladi. O'qituvchining shaxslik fazilatlarini o'qitilayotgan tasviriy san'at predmetning o'zlashtirish sifatini oshiradi, o'quvchilarning shu fanni sevishi o'qituvchini sevish-sevmasligi bilan bog'liq hisoblanadi. O'qituvchining shaxslik xususiyati uning o'zigagina mansub bo'lgan boyligi uni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Busiz metod va yangi usullar samarasiz, haqiqiy jonli, muvaffaqiyatli ta'lim bo'lishi mumkin emas. Tasviriy san'at o'qituvchisining samimiy muloqoti ta'lim-tarbiya ishining asosi bo'lib, barcha yordamchi vositalar undan ruh oladi. Ustoz va o'quvchining o'zaro muomala-munosabati fikrlar va hislar almashinuvi o'quvchini o'rab turgan shart-sharoitlarni hisobga olish mahoratiga bog'liq. Shundagina o'qituvchining tarbiyaviy ta'sir darajasi ortadi. Ustoz va o'quvchi bir-birini yaqinroq o'rganadi, shaxslik sifatlarini mukammalroq o'zlashtirib boradi. O'quvchi ustozdagi ma'naviy sifatlardan o'rnak olishga odatlanadi.

O'qituvchi ezgu sifatli inson timsolidir. Tasviriy san'at o'qituvchisi maktablardagi barcha o'qituvchilardan tarbiyaviy ta'sir kuchining yuksakligi bilan ajralib turadi. Chunki maktab tasviriy san'at o'qituvchisi maktabning rassomi. Tasviriy san'at o'qituvchisi axloqsiz bo'lishi mumkin emas. O'qituvchida hamma narsa: tabassum ham, qattiqqo'llik ham, vazminlik ham, kamtarlik ham, muomala ham, samimiyat va odamshinavandalik ham, turmushga, tabiatga, kishilarga munosabat ham maftun etadigan bo'lishi lozim. Negaki, ustozning ma'naviy sifatleri, shogirdlarning o'z individualligini, shaxsiyatini, xarakterini shakllantirishda o'rnak oladigan eng asosiy manbasidir. Bordi-yu, o'quvchilar o'z o'qituvchilarini unchalik yaxshi ko'rmasa, undan qo'rqsa, do'st deb bilmasa, o'qishning hech qanday qadri qolmaydi. Shogirdlarining hurmatini, mehrini qozonmoq o'qituvchining zarur xususiyati, sababi o'quvchi o'qituvchisini sevish vositasidagina bilimlar olamiga kirib boradi. Yosh avlodni ma'naviy shakllantirishdek yuksak maqsadga intilayotgan badiiy ta'lim yaxshilik va insonparvarlik sharoitidagina unga erisha oladi. Ma'naviy fazilatli o'qituvchi shaxsan tashkil etgan pedagogik jarayon g'amxo'rlik, rahmdillik, mehribonlik, hayrihohlik, yutuq va quvonchdan, har bir o'quvchining qadr-qimmatini qaror topishidan iborat bo'lishi lozim. Bunday munosabat jamiyatning, yangilangan pedagogikaning talabi bo'lib yoshlarning qobiliyat nishonlarining ro'yobga chiqishi va shaxsiyatining bir butun bo'lib shakllanishiga ko'mak beradi.

Ustoz shogirdlarining faolliklarini, intiluvchanligini, qiziquvchanligini, yaxshi fazilatlariga ega bo'lib borayotganligini rag'batlantirib, bu ishda yordam berib borsagina ma'naviy shakllantirish jarayonining samarasi yuksalib boradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan mashg'ulot jarayonida hamkorlik yaratmasa, "Samimiy muloqot", "Ustoz-shogird" tamoyillarini o'rnatmasa, eng zamonaviy texnik vositalar va noan'anaviy usullar ham samarasiz bo'lib qolaveradi. Maktab tasviriy san'at darsi uchun o'qituvchi shaxsidan muhimroq texnik vosita ham, yangi usul ham, mukammal darslik ham yo'q. Bola qalbiga

ezgu insongina sayqal bera oladi. Chunki tasviriy san'at darslari qalblarni boyitish mashg'ulotlaridir.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv texnologiyasini qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Individual yondashuv har bir o'quvchining yosh, psixologik, qobiliyat va qiziqish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish imkonini beradi. Natijada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi, tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishi hamda ijodiy faolligi ortadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni individual yondashuv bilan uyg'unlashtirish darslarning mazmunini boyitadi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Interfaol metodlar, loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar, raqamli ta'lim vositalari va differensial topshiriqlardan foydalanish har bir o'quvchining qobiliyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatib borish, ularga metodik va psixologik jihatdan zarur yordam ko'rsatish hamda qulay ijodiy muhitni yaratishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at darslarida individual yondashuv texnologiyasini izchil qo'llash o'quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi, tasviriy savodxonligi va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur texnologiya nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishiga, ularning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga ham xizmat qiladi. Kelgusida tasviriy san'at ta'limida individual yondashuvni raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion metodlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. PF-4947-son Farmon. – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son Farmon. – Toshkent, 2022.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik / N. Egamberdiyeva va boshqalar. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.
5. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi: Pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma / Sh. Abdirasilov va hammualliflar. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2021.